

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

"Oliy matematika" kafedrasining
№2-sonli yig'ilish bayonnomasidan
KO'CHIRMA

29.09.2023

Yig'ilish raisi

Yig'ilish kotibi

Qatnashdilar

Denov.sh

M.R.Sobirova-oliy matematika kafedrası mudiri

E.S.Eshtemirov- oliy matematika kafedrası o'qituvchisi

Barcha professor o'qituvchilar

KUN TARTIBIDA:

1. "Oliy matematika" kafedrası o'qituvchisi E. Eshtemirovning "Chiziqli algebra" fanidan "Matritsalar va ular ustida amallar" mavzusida ikki soatlik ochiq dars muxokamasi.

ESHITILDI:

1-masala. Ushbu masala yuzasidan taqrizchi I-m.f.f.d. A. Davlatbekov so'zga chiqib kafedra o'qituvchisi E. Eshtemirovning 1M-2023, 2M-2023 guruhlarida "Chiziqli algebra" fanidan "Matritsalar va ular ustida amallar" mavzusida o'tgan ikki soatlik ochiq ma'ruza darsi o'tganligi va ochiq ma'ruza o'z vaqtida belgilangan auditoriyada hamda e'lon qilingan mavzuda bo'lganligini aytib o'tdi. Guruhda jurnal bo'yicha 1M-2023-guruhda 27 nafar talaba, 2M-2023-guruhda 25 nafar talaba qatnashdi. Ochiq ma'ruzada har ikki guruhdan jami 52 nafar talaba qatnashganligi, ya'ni darsda talabalar 100% ekanligini haqida professor-o'qituvchilarga ma'lumot berildi. Ochiq dars belgilangan texnologik xaritada amal qilgan holda o'tilganligini va grafikli taqdimot asosida qiziqarli o'tganligini aytib o'tdi. Kafedra o'qituvchisi E. Eshtemirov darsni interfaol tarzda olib bordi. Tarqatma materiallar va slaydlardan unumli foydalandi, ya'ni pedagogik texnologiyalardan foydalandi. O'tilgan mavzu fan dasturi asosida ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturiga mos keladi. Kafedra o'qituvchisi E. Eshtemirovning pedagogik mahorati ijobiy baholandi. Barcha talabalarining daftari mavjud bo'lib, ularni darsga bo'lgan qiziqishlari o'ln kuchli ekanligi kuzatildi. Kafedrada E. Eshtemirovning ochiq ma'ruza darsi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan muhokama qilindi va ushbu ochiq dars kafedraning yosh o'qituvchilariga kelgusida pedagogik faoliyatlarida saboqli dars bo'lganligini aytib o'tishdi va o'z fikrlarini bildirishdi. Darsda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars yaxshi o'tkazildi. Dars yakunida talabalardan so'ralganida, haqiqatan ham ushbu ochiq ma'ruza darsi " Matritsalar va ular ustida amallar " mavzusi asosida to'g'ri tanlanganligi va samarali, tushunarli o'tganligini aytib o'tishdi va o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirishar ekan, o'z o'rnida fan o'qituvchilariga minnatdorchilik ham bildirishdi.

Kafedra yig'ilishi yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagicha

QAROR QABUL QILADI

1. pfd (PhD) M.Sobirovaning kafedra o'qituvchisi E.Eshtemirovning 1-kurs 1M-2023, 2M-2023 guruhlarida Chiziqli algebra fanidan " Matritsalar va ular ustida amallar " mavzusida o'tgan ochiq darsi to'g'risida bildirgan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin
2. Kafedra o'qituvchisi E.Eshtemirovning 1-kurs 1M-2023, 2M-2023 guruhlarida Chiziqli algebra fanidan " Matritsalar va ular ustida amallar " mavzusida o'tgan ochiq darsi ijobiy deb topilsin.
3. Kafedra o'qituvchisi E.Eshtemirovga dars davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklari yuzasidan o'z ustida ishlash yozifani yuklatilsin

Yig'ilish raisi

Yig'ilish kotibi

(PhD), dotsent M.R.Sobirova

o'qituvchi E.E.Eshtemirov

